

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDADA IXTIYORIY DIQQATNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Allayorova Dinora Sherali qizi

O'zMU, ijtimoiy fanlar fakulteti ijtimoiy psixologiya 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi va diqqat qilish xususiyati o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi.

Kalit so'zlar: Maktab, o'quvchi, diqqat, idrok, taraqqiyot, xulq, axloqiy normalar, xarakter.

Аннотация: Умственное развитие и внимательность детей младшего школьного возраста создают важные условия для развития интеллекта, чувствительности, наблюдательности, способностей к запоминанию и запоминанию, формируют навыки счета.

Ключевые слова: Школа, ученик, внимание, восприятие, развитие, поведение, моральные нормы, характер.

Abstract: Mental development and attentiveness of children of primary school age create important conditions for the development of the student's intelligence, sensitivity, observation, memorization and recall abilities, and form calculation skills.

Key words: School, student, attention, perception, development, behavior, moral norms, character.

KIRISH

Jahonda maktab o'quvchilarini boshlang'ich sinf davridanoq bilish jarayonlarini, ayniqsa, diqqatini rivojlantirishga e'tibor berish orqali, kelajakda uni mutaxassis sifatida ilg'or va iqtidorli bo'lishiga erishish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada «...tadqiqotlardan olingan natijalarga ko'ra, shaxs diqqati o'rtacha to'planishi 20 yildagi 12 soniyadan iborat bo'lgan vaziyatda, bugungi kunda 8 soniyaga kamayishi natijasida o'z diqqatlarini 9 soniya ushlab turishga qodir bo'lgan akvarium baliqlaridan kamroq bo'lishi...»ni e'tiborga olinadigan bo'lsa, o'quvchilarga boshlang'ich sinfdayoq ixtiyoriy diqqatini shakllantirish, ta'lim olishlariga tubdan e'tibor qaratish, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning diqqatini rivojlantirish orqali ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligiga erishish masalalari dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda boshlang'ich sinflarda ixtiyoriy, barqaror diqqatni shakllantirishning psixologik xususiyatlarini aniqlash, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish, o'qishga qiziqish, ijtimoiy muammolarga nisbatan kreativ yondashish hamda takomillashtirish masalalariga oid

ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni ta'lim jarayoni sifati uchun rivojlantirish, bolada ixtiyoriy diqqatni shakllantirish, mazkur diqqatning bola o'zlashtirishga bevosita bog'liqligining psixologik jihatlarini ta'minlash hamda turli yosh davrlarida kognitiv jarayonlarni rivojlantirish muammosini tadqiq etishga yo'naltirilgan masalalarga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda. Respublikamizda so'nggi yillarda boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olingen bolalarning har tomonlama sog'lom va ruhan yetuk shaxs etib kamol toptirishga oid belgilangan vazifalarning xuquqiy-me'yoriy zarur asoslari yaratildi. «Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi, degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish...»ni ustuvor etib belgilanganligi mamlakat kelajagi bo'lgan bolalarni kichik maktab yoshidayoq bilish jarayonlarini rivojlanishiga erishish, o'quvchilar diqqati barqarorligini takomillashtirish yuzasidan yangicha ilmiy yondashuv asosida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish hamda nazariy yechimlarini topish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotlar tahlilida biz 2022 yil 28 yanvarda tasdiqlangan PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlar, 2019 yil 12 iyuldaggi 577-son «O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida» Qarorlari hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.

Respublikamiz psixolog olimlaridan Sh.Dusmuxamedova, A.Kabilova, T.Mustafakulov, R.Sunnatova, M.Maxsudova va boshqalarning tadqiqotlarida kichik maktab yosh davriga oid dolzarb muammolar turli jihatdan o'r ganilgan. M.Zufarova tomonidan diqqat xususiyatlari, M.A.Xalimova tadqiqotida boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan diqqat yetishmasligi sindromi patologiya sifatida tadqiq etilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan diqqatni to'g'ri boshqarish va rivojlantirish muammolari L.Vigotskiy, F.Gonobolin, N.Dobrinin, N.Kuzmina, A.Leontev, A.Lyublinskaya, A.Miller, N.Obozov, N.Perlmutter, S.Rubinshteyn, P.Sekord, L.Slavina va boshqalar tomonidan eksperimental o'r ganilgan. Xorijiy psixologlardan D.Broadbent, J.Deutsch, U.Neisser, D.Norman, A.Treisman va boshqalar tomonidan diqqatning psixologik xususiyatlari, diqqatni kognitiv yo'nalish asosida o'r ganishgan, K.Wagner, G.Gollnitz, F.Reinhardt, N.Salman va boshqalar tomonidan diqqat konsentratsiyasi o'zgarishi masalalari,

T.Kossow, T.Feresildlar diqqat konsentratsiyasi buzilishini, R.Brechenkamp, P.Pauli va boshqa psixoanalitiklarning diqqatni jamlash konsentratsiyasini tadqiq etishgan.


MUHOKAMA

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda asosan farq qila olish, ko‘rish va eshitish sezgilari ayniqsa tez o‘sadi. 7-10 Yoshli bolalarda ranglarning tuslarini sezish 45% ortishi, 10-12 Yoshgacha bolalarda esa 65%gacha ortishi rus olimlari tomonidan aniqlanilgan. Kichik maktab o‘quvchilarini rasm chizishga o‘rgatish ranglarni farqlash sezgirlingining o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ohanglarni farq qilish sezgirlingi, ayniqsa bolalarga musiqa va ashula o‘rgatish jarayonida kuchli suratda o‘sadi. Sezgilarning o‘sishida Shuningdek, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining ham ahamiyati katta. Aniq harakat qilishga jalb etuvchi mashqlar bolalarning muskul-harakat sezgilarini o‘stiradi. Kichik maktab davriga kelib idrokning hamma turlari asosan ta’lim- tarbiya tufayli mazmun, anqlik, ravshanlik jihatdan ko‘p darajada takomillashadi. Mazkur Yoshdagagi bolalar o‘z idroklarining anqligi, ravnligi, o‘tkirligi bilan boshqa Yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o‘ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni maqonda joylashishini bilish bilan, birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasining yuqori bo‘lishi juda muhim hisoblanadi. Maktab yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bolalar rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrofhayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladi. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki, bola shu rasmlar orqali olam go‘zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o‘z munosabatini bildira oladi. Ta’limtarbiya jarayonida bolalarda ixtiyoriy idrok va kuzata olish qobiliyati o‘sadi. Kuzata bilish muvafaqqiyatli o‘qish uchun zarur shartlardan biridir. O‘quvchilarda kuzata bilish qobiliyati ularning tafakkuri, irodasi, qiziqish, havaslari bilan birgalikda o‘sib boradi. Bu Yoshdagagi o‘quvchilar o‘z idroklarini mustaqil idora eta oladilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini katta Yoshdagagi odamlardan deyarli qolishmasdan to‘g‘ri chiziqni ko‘z bilan chandalab teng ikki bo‘lakka bo‘la oladilar, narsa va chiziqlarni katta-kichikligiga qarab taqqoslay oladilar, narsalarning fazoda turgan o‘rnini, ularning qaysi biri yaqinroq yoki uzoqroq, qaysi biri balandroq yoki pastroq joylashganini ko‘z bilan chandalab, shu masofani bosib o‘tish uchun talab qilinadigan vaqtini ham taxminan hisoblay oladilar. Maktab ta’limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqatni irodaviy zo‘r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo‘lmaydi. Buning asosiy sababi, ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko‘proq

rivojlangan bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi, o‘quvchida beixtiyor his-tuyg‘ularni uyg‘otadi va kuchli irodaviy zo‘riqishsiz fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2 sinf o‘quvchilari diqqatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri - uning etarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ham ular o‘z diqqatlarini uzoq muddat muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat ob’ektlari ustida uzoq tura olmaydilar. Ta’lim jarayoni kichik maktab Yoshidagi o‘quvchilarining ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar echish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo‘r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Bu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatni to‘plash, tashkil qilish, uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish uquvi shakllana boshlaydi.

NATIJALAR

«Chalkash chiziqlar» metodikasi o‘yin tarzida olib boriladi. Bu 2-sinf o‘quvchilarining yuqori natija olishlariga ta’sirini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, diqqat barqarorligining buzilishiga turli xil kasalliklar, axborot oqimining ko‘pligi va mobil telefon aloqalari ham ta’sir qiladi. Bizning tadqiqotimiz ob’ekti bo‘lgan 4-sinf o‘quvchilari orasida 2-sinf o‘quvchilariga nisbatan mobil telefondan foydalanishi ko‘p bo‘lishi tadqiqot natijasiga o‘z ta’siri ko‘rsatdi. Tadqiqotimizda diqqatning nafaqat yosh farqlari, balki jins farqlarini tadqiq etishni ham vazifa qilib olgan edik. Quyida eksperiment natijalari bilan tanishtiramiz. Ikkinchisi sinf qiz va o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi jins farqlarini aniqlashda diqqatning uchta xususiyatining natijalarini biz tomonimizdan o‘tkazilgan uchta metodika natijalari asosida taqdim etamiz. Quyidagi 1-rasmda ko‘rinib turganidek, 2-sinf qiz bolalarida diqqat taqsimlanishining o‘rtta arifmetik qiymati 22,36 ga, 2-sinf o‘g‘il bola o‘quvchilarida esa 21,27 ga teng («Raqamlarni joylashtirish» metodikasi natijalariga ko‘ra). Natijada diqqatning taqsimlanish xususiyati 2-sinf o‘g‘il bolalariga nisbatan qizlarda yuqori rivojlanganini ko‘rshimiz mumkin. Diqqatning taqsimlanishi murakkab va qiyin jarayon bo‘lganli sababli, u miyaning alohida uchastkalarining rivojlashinishiga bog‘liq hisoblanadi. Aslida, qiz bola o‘g‘il bolaga nisbatan jismoniy, kognitiv, psixologik jihatdan ertaroq yetilishi isbotlangan. Tadqiqotlarda diqqat va uning xususiyatlari namoyon bo‘lishi yoshga bog‘liq kategoriya ekanligi aniqlandi. Kichik maktab yoshining 2-sinf o‘quvchilarida diqqatning barqarorligi xususiyati yuqori namoyon bo‘ldi. Barqarorlik diqqat paydo bo‘lishining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Quyidagi 1-rasmidan ko‘rinib turganidek, 2-sinf qiz bolalarida diqqat barqarorligining o‘rtta arifmetik qiymati 14,97 ga, 2-sinf o‘g‘il bolalarida esa 16,08 ga teng («Chalkash chiziqlar» metodikasi natijalariga ko‘ra).



1-rasm. Ikkinci sinf o'quvchilarida diqqat xususiyatlari namoyon bo'lishida jins farqlari.

Ikkinci sinf o'g'il va qiz bolalar xususiyatlaridagi o'zaro farqli jihatlar diqqatning barqarorligi xususiyatida ham namoyon bo'ldi. Ya'ni, qiz bolalarda o'g'il bolalarga nisbatan yuqori natija namoyon bo'ldi. Yuqoridagi 1-rasmdan ko'rinish turganidek, 2-sinf qiz bolalarida diqqat ko'chuvchanligining o'rta arifmetik qiymati 13,26 ga, 2-sinf o'g'il bola o'quvchilarida esa 17,63 ga teng («Arab-rim jadvallari» metodikasi natijalariga ko'ra). Diqqatning ko'chuvchanligi 2-sinf qiz bolalariga qaraganda, o'g'il bolalarida yuqori rivojlanganligi namoyon bo'ldi. Diqqatning ko'chuvchanligi - bu ongni bir narsadan chalg'itib, boshqasiga o'tkazish qobiliyatidir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda diqqatning ko'chuvchanligi darhol sodir bo'lmaydi. Dars davomida o'qituvchi savol bersa, o'quvchilar uning savolini tinglamasdan, haligacha undan oldingi savolga javob berishayotgan holat ko'p takrorlanishi mumkin. Diqqatning ko'chuvchanligi boshqa xususiyatlarga qaraganda osonroq o'rgatiladi. Buning uchun darsda o'qituvchi 14 muntazam ravishda mashg'ulotlar va topshiriq turlarini o'zgartirib turishi kerak. Tadqiqotimiz davomida diqqatning namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillarni tadqiq etishni vazifa qilib belgilaganmiz. Buning uchun Pirson korrelyatsiya koeffitsientidan foydalanib, o'quvchilar diqqatiga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi

XULOSA

Mavzu bo'yicha olingan nazariy va empirik natijalar tahlili qo'yidagi ilmiy asoslangan xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Kichik maktab yoshi o'quvchisida diqqatning sust rivojlanganligi uning boshqa bilish jarayonlarini ham optimal rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kichik maktab yoshi o'quvchisida past o'zlashtirish uning o'qituvchi bilan muloqot munosabatini salbiy bo'lishiga ta'sir etadi, natijada kichik maktab yoshidagi o'quvchida psixologik ijtimoiylashuv jarayoni shakllanishiga ijobiy xolatlari mavjudligi belgilandi.

2. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda diqqatning barqarorligi, taqsimlanishi va ko‘chuvchanligi ikkinchi va to‘rtinchi sinf o‘quvchilarida notekis rivojlanish qonuniyatiga, nerv tizimidagi fiziologik yetilish tamoyillariga bo‘ysunishi aniqlandi.

3. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda diqqatning murakkab xususiyatlaridan biri bo‘lgan taqsimlanish xususiyati qiz bolalarda kuchli rivojlanganligi oqibatida sezilarli farqlar, diqqat barqarorligi va ko‘chuvchanligi o‘g‘il bolalarda yaxshi rivojlanganligi hisobiga kuchli darajada namoyon bo‘lishi empirik tadqiqotlar asosida aniqlandi.

4. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar diqqati rivojlanishiga o‘qituvchining muloqot uslubi kabi ob’ektiv omil ta’sir qiladi. 2-sinf 19 o‘quvchilarda diqqatning ko‘chuvchanligi hamda o‘qituvchi liberal uslubi orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi. Kichik maktab yoshining 4-sinf o‘quvchilarda diqqatning barqarorligi hamda o‘qituvchining demokratik uslubi orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi.

5. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchining diqqati shakllanishiga uning individual psixologik xususiyatlaridan biri bo‘lmish temperament tipi ham ta’sir qiladi. 4-sinf o‘quvchilarda diqqatning barqarorligi, taqsimlanishi, ko‘chuvchanligi va xolerik, sangvinik, flegmatik temperament tiplari orasida musbat bog‘lanish aniqlandi. Diqqatning barqarorligi, ko‘chuvchanligi hamda melanxolik tip orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi.

6. Diqqatning barqarorligi, taqsimlanishi va o‘quv motivatsiyasi orasida musbat bog‘lanish aniqlandi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv motivatsiyasi qanchalik kuchli bo‘lsa, ularning diqqati shunchalik barqaror, bir vaqtning o‘zida bir necha ob’ektlarga taqsimlay oladi.

7. O‘yin terapiyasi, neyropsixologik korreksiya, sensomotor korreksiya, shaxsga yo‘naltirilgan terapiya, artterapiya, goloterapiya, geshtalt terapiya kabi korreksion metodlar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning diqqatini rivojlantirishda foydalanildi.

8. Diqqat rivojlanishini korreksiyalash bolaga qo‘zg‘atuvchi ta’sir va vositalar yordamida reaksiya qilish orqali ma’lum ko‘nikma va malakani egallash holatiga erishish kabi mexanizmlar orqali samaralidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Umarova Gulhayo Murod iljonovna. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiruvchi texnologiyalar // American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 09, Oct., 2022. pp. 210- 224.
2. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Zulayho Jabborova Mansur qizi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish // —Ustozlar uchun fidoyi va jonkuyar pedagoglar jurnali. 34-son, 1-to’plam, dekabr, 2022. 8-12

3. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, D.O.Ximmataliyev. O'smirlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning usullari va vositalari // —Ustozlar uchun fidoyi va jonkuyar pedagoglar jurnalı. 34-son, 1-to'plam, dekabr, 2022. 13-23 b.
4. Umarova Gulhayo Murodiljanovna. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni klasterli yondashuv asosida rivojlantirish // —Pedagogs international research journal. Volume-21, Issue-2, November, 2022. Pp.7-10

